

2-TOM, 11-SON

KURSANTLAR HARBIY FAOLIYATIDA DUCH KELADIGAN
PSIXALOGIK MUAMMOLAR

Bebitova Sayyora Nazarovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti.

Annotatsiya-ushbu tezisda harbiy bilim yurtlarida taxsil olayotgan kursantlarning harbiy faoliyatida qanday muammolarga duch kelishi, ulardagi stress va depressiya holatlari va ularning yechimlari yoritilgan.

Kalit so'zlar:harbiy faoliyat, stress

Harbiy xizmatchi o'z kasbining haqiqiy egasi bo'lishi uchun o'zini qurshab turgan atrof-muhit haqida bilim va tasavvurga ega bo'lishi shartdir. Olam va odam, tabiat va jamiyat hamda fazo haqidagi bilimlar inson psixikasining muhim shakli bo'lgan bilish jarayonlari yordamida to'planadi va rivojlanadi. Harbiy xizmatchilar samarali faoliyat olib borishlari uchun ularning psixikasi, birinchi o'rinda psixologik bilish jarayonlari har tomonlama kuchli bo'lishi kerak. Psixikasi mustahkam va musaffo bo'lgan odam har qanday qiyin, ekstremal holatlardan osonlikcha, bezarar chiqib keta oladi. Psixikasi kuchli bo'lgan harbiy xizmatchi harbiy harakatlar davomida o'zini dadil tutadi, Vatanni ishonchli himoya qila oladi. Shuning uchun ham, shaxsiy tarkibning axloqiy-psixologik tayyorgarligida "inson psixikasini kuchaytirish" muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar sirasiga kiradi. Harbiy oliygohlarda ta'lim olayotgan kursantlar hayotida turli xil vaziyatlar, oilaviy muammolar, uy sog'inchi, harbiy muhitdagi qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda psixikasi kuchli bo'lmagan ba'zi bir harbiy xizmatchilar stress depressiya holatlariga tushib qolishi mumkin. Shu narsani alohida qayd etish zarurki, xizmat vazifasini o'tayotgan harbiy xizmatchilarni jangovar shaylik va jangovar tayyorgarlik amaliyot davomida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat harbiy xizmatchilarda ruhiy zo'riqish va psixologik stress holatlari belgilangan me'yor darajasidan ortiqligi qayd etilmoqda.

Harbiy xizmat o'tash jarayonida stress – bu atrofimizdagi voqelikning doimiy tarkibiy qismidir. Stressni yuzaga kelishiga olib keluvchi vaziyatga hamda uning shiddatiga qarab, stress bizning eng yaxshi do'stimiz yoki eng yomon dushmanimiz bo'lishi mumkin. Stressni bizning zararimizga emas, foydamizga ishlashi uchun uni nazorat ostida ushlab juda ham muhimdir. Bo'linma komandirlari, ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari hamda harbiy psixologlar o'z hatti-xarakatlarini stressli vaziyatlarni bekor qilish, ularni kamytirish, yengib o'tish va boshqarishga yo'naltirishlari kerak, shuningdek,



2-TOM, 11-SON

stressni pasaytirish va bartaraf etish maqsadida zaruriy profilaktik choralar ko'rishlari lozim. Stress taʼsirlari harbiy xizmatchining omon qolishi va yuklatilgan o'quv jangovar vazifalarni bajarishiga yordam berishi kerak. Ular harbiy xizmatchining sog'ligi, xizmatga bo'lgan munosabati, shaxsiy saviyasi va xizmat faoliyati samaradorligi darajasini yomonlashishiga sabab bo'lmasligi kerak.

XULOSA

Shunday qilib, zamonaviy jangovar omillarning odamlarning ruhiyati va xulqatvoriga taʼsirini tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Xavfli vaziyat muqarrar ravishda harbiy xizmatchilarda ruhiy zoʻriqish (stress holati)ni keltirib chiqaradi. Bu holat ruhiy jarayonlarga (idrok, diqqat, xotira, fikrlash, iroda, his-tuygʻular) va jangovar faoliyat samaradorligiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Stress psixikaga ham safarbar qiluvchi, ham tushkunlikka soladigan sifatda taʼsir qilishi mumkin. Ushbu taʼsirning tabiati harbiy xizmatchilarning motivatsiyalariga, shaxsiy psixologik barqarorliklariga va ularning jangovar tajribasiga bogʻliq. Binobarin, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarlik jarayonida jangovar stress omillarining taʼsiriga moyilligini oʻzgartirish va ularning jangovar faolligini taʼminlash uchun barcha imkoniyatlar, kuch va vositalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ch.R.Nasriddinov “Harbiy psixalogiya” Fan nashriyoti,Toshkent:2004-yil
- 2.Q.A.Sh.Satibaldiyev “Harbiy psixalogiya va pedagogika asoslari” TDPU nashriyoti,Toshkent:2007-yil.
- 3.Internet ma'lumotlari:mudofaa.uz

